

TURKISTON O'LKASIDAGI JADIDCHILIK HARAKATIDA ABDULLA AVLONIYNING O'RNI



Buriyeva Shaxnoza Inat qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti Boshlang'ich
ta'lif fakulteti 3-bosqich talabasi

+998886784664

shaxnozam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada atoqli ma'rifatparvar jadidlardan biri hisoblangan Abdulla Avloniyning jadidchilik harakati rivojiga qo'shgan hissasi, Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakati, bu yo'lda ma'rifatparvarlik harakatlari, uning jadidchilik harakatlarida tutgan o'rni Avloniy boshchiligidagi ochilgan teatr, nashriyotlar, kutubxona va maktablarning ahamiyati hamda darsliklari yuzasidan tahliliy fikrlar mavjud.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'orif, darsliklar, "Turon" teatri, matbuot, jurnalistika, nashr, jadidchilik, pedagog, o'zbek adabiyoti, madaniyat, ta'lif tizimi, uyg'onish, jamiyat

Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir

Abdulla Avloniy

Bugungi kunda mamlakatimizda jadid ma'rifatparvarlarining boy tarixi va merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Toshkent shahrida o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchiilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumandagi nutqida ham buni ta'kidlab o'tadi. "Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajodolarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmati va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamizdir", deb ta'kidlab o'tadi. Shu o'rinda

ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Har bir milatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynai hayoti – til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdir", degan so'zlarini alohida ta'kidlab o'tildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati paydo bo'ldi. Bu harakatning asosiy maqsadi o'lka xalqlarini ilmiy va madaniy jihatdan rivojlantirish, ularga zamonaviy bilimlar berish, mustamlaka zulmiga qarshi milliy ongni uyg'otish edi. Jadidlar o'z faoliyatlarida ta'lim islohotlarini bиринчи o'ringa qo'ydilar. Chunki ular xalq taraqqiy etishining eng muhim omili bilim va ma'rifat ekanligini anglab yetgan edilar. Jadidlar eski usul mакtablarining kamchiliklarini tanqid qilib, yangi usul mакtablarini ochishga intildilar. Bu mакtablarda zamonaviy fanlar, tabiiy fanlar, til va adabiyot o'qитila boshlandi. Jadidchilik harakati gazetachilik, teatr, adabiyot va siyosiy faoliyat orqali ham jamiyatga ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli jadidlar Turkiston o'lkasida ma'rifatparvarlik g'oyalarining keng yoyilishida muhim rol o'ynadilar. Xalqning savodli bo'lishida yangi usul mакtablarini ochish, milliy madaniyatimizning targ'ib etilishidagi o'quv darsliklarining chop etilishi Abdulla Avloniy nomi bilan bog'liqlikni tashkil etadi. Uning yaratgan asarlarida o'zi bilgan ma'lumotlarni dunyo hamjamiyatining o'quv darsliklari bilan tahliliy ravishda taqqoslab bir qator darsliklarning yaratilishida bosh bo'ldi. Arab tili shu jumladan: fors, rus tillarini bilgani holda o'zi yashab turgan hududlari hamda Degrezliq, Mirobod kabi hududlarda yangi usul mакtablarini ochdi. Uning mакtablari orqali ko'plab o'quvchilarning savod chiqarishiga sabab bo'lgan. Bir necha jadidlar qatorida xalqni savodli qilish uchun qattiq harakat qilgan. Xalqni savodli qilish uchun yangi usul mакtablarini ochish va milliy madaniyatimining targ'ib etilishida, o'quv darsliklarining yaratilishida o'zining munosib hissasini qo'shgan.

Abdulla Avloniy Turkiston jadidchilik harakatining eng faol vakillaridan biri bo'lib, uning ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. U 1878-yilda Toshkent shahrida tug'ilib, yoshlik chog'idan ilmga bo'lgan ishtiyoqi bilan ajralib turgan. Avloniy o'z faoliyatini boshlang'ich ta'lim sohasida boshlab, o'lkada ma'rifat va zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. U 1904-yilda

Toshkentda yangi usul maktabini tashkil etdi va bu maktab orqali bolalarga zamonaviy bilim berishni maqsad qildi. Avloniy faqat o'qituvchi sifatida emas, balki yozuvchi, dramaturg, jurnalist va jamiyat arbobi sifatida ham faoliyat yuritdi. U "Shuhrat" gazetasini nashr etib, xalq orasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qildi. Avloniy ta'lif sohasidagi islohotlarga katta e'tibor qaratdi. U an'anaviy maktablarning eskirgan usullardan voz kechishi va o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berilishi tarafdoi edi. Shu sababli, u tashkil etgan yangi usul maktablari o'z zamonasi uchun innovatsion ta'lif muassasalari hisoblangan. Bu maktablarda quyidagi fanlar o'qitilgan:

- ✓ Ona tili va adabiyot
- ✓ Matematika
- ✓ Geografiya
- ✓ Tarix
- ✓ Arab, fors va rus tillari
- ✓ Axloq va ma'rifat darslari

Avloniy shuningdek, o'qituvchilar tayyorlashga ham katta ahamiyat bergan. U o'qituvchilar uchun maxsus qo'llanmalar yozib, zamonaviy pedagogika usullarini targ'ib qilgan.

Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari orqali millatni axloqiy tarbiyalash va ma'naviy rivojlantirishga harakat qilgan. Ushbu asarda insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik va ilm olishning ahamiyati keng yoritilgan. Quyidagi asosiy g'oyalar ilgari surilgan:

Ilmning qadri – Avloniy ilm-fanni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilgan va yoshlarni o'qishga undagan.

Axloqiy poklik – Halollik, adolat va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarni targ'ib qilgan.

Vatanparvarlik – Xalqning o'z milliy qadriyatlarini saqlab qolishi va mustaqillik uchun intilishi muhimligi ta'kidlangan.

Birgina uning "Turkiy guliston yoxud Axloq" asaridagi ilm

Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroiki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas‘ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur. Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug‘iga, yordoi‘stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tarafda tursun o‘z ustiga lozim bo‘lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qila olmas. Ilmning foydasi u qadar ko‘pdurki, ta’rif qilg‘on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qorong‘ulig‘idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma‘rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Allah taologa muhabbat va e’tiqodimizni ortdurur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog‘lidur. [5-45-46b]

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ilm har doim taraqqiyotning asosi bo‘lib kelgan. Qaysi jamiyat ilmgaga tayanib ish tutgan bo‘lsa, u rivoj topgan, obod va madaniyatli bo‘lgan. Aksincha, ilmgaga e’tiborsiz qaragan jamiyatlar jaholat botqog‘iga botgan va orqada qolgan. Ilm insonni ham ruhiy, ham aqliy jihatdan yuksaltiradi, unga haq bilan nohaqni, ezgulik bilan yovuzlikni ajratish imkonini beradi. Haqiqatan ham, ilm bizga hayot yo‘limizni yorug‘ qiladi. Inson qanchalik ko‘p bilsa, shunchalik komil bo‘lib boradi. Zero, ilm – bu qalb va ongni sayqallovchi, hayotga ma’no bag‘ishlovchi eng ulug‘ ne’matlardan biridir. Ilm-fan rivojlanishi tufayli biz bugungi kunda yerdan osmonga chiqib, butun olam sirlarini o‘rganmoqdamiz. Dunyodagi buyuk kashfiyotlarning barchasi ilm tufayli ro‘yobga chiqqan. Agar ilm bo‘limganda, odamzod hali ham jaholat girdobida qolgan bo‘lar edi. Ilmning fazilatlari beqiyos. U bizni axloqiy yuksaklik sari boshlaydi, hayotimizga mazmun beradi. Payg‘ambarimizning “Ilm o‘rganish har bir musulmonga farzdir” degan hadisi bu ne’matning naqadar muhim ekanini ko‘rsatib turibdi. Olim kishi har yerda aziz va

hurmatlidir. Chunki u atrofdagilarga ham foyda yetkazadi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shami. Ilmsiz odam esa mevasiz daraxt kabitdir – ne o'zi manfaat topa oladi, ne boshqalarga foyda bera oladi. Bugungi kunda har birimiz ilm olish imkoniyatiga egamiz. Kitoblar, internet, turli ta'lim dargohlari – bularning barchasi bizni bilim olishga undaydi. Ammo ilm olish shunchaki kitob o'qish yoki dars eshitish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uni hayotimizga tatbiq etish, o'zimizni doimiy ravishda rivojlantirish lozim. Zero, haqiqiy ilm odamni jamiyatga foydali shaxsga aylantiradi. Shunday ekan, biz ham bo'sh vaqtimizni bekorga sarflamaylik. Har bir imkoniyatni ilm yo'lida, o'zimizni rivojlantirish uchun ishlatalaylik. Chunki ilm – dunyoning izzati, oxiratning sharofati. Haqiqiy saodat ham, baxt ham, yuksak martaba ham ilm bilan qo'lga kiritiladi.

Avloniyning asarlarida jadidchilik harakatining asosiy maqsadlari, xalq orasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishda katta rol o'ynagan. Abdulla Avloniy bu kabi qilgan ishlari natijasida xalq orasida katta hurmat – e'tiborga sazovor bo'ldi, millat va yurt qayg'usi bilan, mamlakat istiqboli va ravnaqi ezgu niyati bilan yashadi. O'z satrlarida vatanni kuylab tarannum etdi. Bu borada Avloniyning quyidagi so'zlari g'oyatda ibratli va xuddi bugungi kunda bizni o'ylab aytilgan so'zlarga o'xshaydi: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmakdur... Yohu bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqib ketduk! Yaxshi qo'shningdan olguncha yomon uyingni qidir, demishlar. Bobolarimizga yetishg'on va yaratgan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qotganlarni ham topamiz. Yo'qolsa yo'qolsun o'zi boshimga tor edi, deb Yevropa qalpog'ini kiyub, kulgu bo'lmak zo'r ayb va uyotdur". Abdulla Avloniy barcha jaholatliklar, qorong'uliklar va nodonliklarning asosida ma'rifsizlik, bilimsizlik yotishini yaxshi biar edi. Shuning uchun u biz avlodlarga, farzandlarga va o'g'il – qizlarga pand – u nasihatlar qilib mакtabga boorish, yaxshi bilim olish, o'qish, o'rganish va ilm olishga chaqirdi.

Abdulla Avloniy Turkiston jadidchilik harakatining eng ilg'or vakillaridan biri sifatida xalqni ilmg'a, ma'rifatga chorlagan va milliy ongni rivojlantirish yo'lida

fidokorona xizmat qilgan. Uning ta’lim sohasidagi islohotlari, yangi usul maktablarini tashkil etishi va ma’naviy-ma’rifiy asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Avloniyning fikrlari va maqsadlari faqat bir davr uchun emas, balki hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Uning mehnatlari tufayli xalqimiz o‘z milliy qadriyatlarini anglab, ilm-fan rivojiga intilib kelmoqda. Shu bois, Abdulla Avloniy nafaqat jadidchilik harakatining, balki O‘zbekiston ta’lim va ma’naviyat tarixining yorqin siymolaridan biri sifatida abadiy qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. _ Kitob mollari yetib borish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va Prezident Farmoni . “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 13 yanvar – 9-soni.
2. Mirziyaev Sh. M. _ Milliy taraqqiyot davom etdi Toshkent - 2017, " O'zbekiston ", 593 b
3. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
4. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust .
5. Abdulla Avloniy . Turk gulistoni yoki axloqi. - T.: "O'qituvchi", 1996 yil.45b
6. Abu Nasr Farubi . Olijanob odamlar shahri. - T.: “Abdulli Qodiriy nomidagi xalq merosi ”, 1993 y.
7. Abu Rayhon Beruniy . Hikmatlar. - T.: "Yosh gvardiya", 1973 yil.
8. Temur ta’limoti . T.: G‘afura nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti
9. Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yoki Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. - T.: Shark, 2000. – 94
10. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O’.Ubaydullayev. Vtan tarixi. Toshkent.
11. SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. (2017). ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI.

12. Michael McCarthy and Felicity O'Dell." English Idioms in Use"--Cambridge university press.—L